

RAQSGA BAXSHIDA UMR.

<https://doi.org/10.2861/zenodo.18043147>

Babaev Nurmat.

*O'zbekiston Davlat xoreografiya akademiyasi
Urgansh filiali "Lazgi" bo'limi kichik ilmiy xodimi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada Qaraqalpog'iston va O'zbekiston xalq artisti, professor Sharipov Abdullo Nag'metovichning san'at olamiga kirib kelishi, uning san'at yo'lidagi yutuqlarida ustozlarning qo'llab - quvvatlashlari, bugungi kunda raqs fidoyisining ilmiy izlanishlari, uning xoreografiya sohasida kursdoshlari va kasbdoshlari bilan olib borayotgan ijodiy muloqotlari keng yoritilgan.

Аннотация

В данной статье широко освещаются вхождение в мир искусства народного артиста Каракалпакстана и Узбекистана, профессора Шарипова Абдулло Нагметовича, поддержка его наставников на пути творческих достижений, современные научные изыскания преданного танцу мастера, а также его творческие диалоги с сокурсниками и коллегами по хореографической сфере.

Abstract

This article provides a broad coverage of the entry into the world of art of the People's Artist of Karakalpakstan and Uzbekistan, Professor Sharipov Abdullo Nag'metovich, the support he received from his mentors in achieving success along his artistic path, the current scientific research of the devoted dance enthusiast, as well as his creative dialogues with fellow students and colleagues in the field of choreography.

Kalit so'zlar

Xoreografiya, balet, san'at, teatr, ilmiy, teatr, artist, ijod, kasting.

Biz kasbdoshlarmiz Qaraqalpog'iston xalq artisti, O'zbekiston xalq artisti professor Sharipov Abdullo Nag'metovich san'atiga kirib kelishi xususida, raqs san'ati bo'yicha erishgan yutuqlarning asosi nimalarda ekanligi va uning ijodiy faoliyati, professor darajasiga yetguncha hayot, ijod yo'llaridagi mashaqqatlari, bugungi kunda kasbdoshimiz xoreografiya fanini sir asrorlarini talabalarga chuqur sindirish pedagoglik faoliyatining e'zozli kasb sifatida qanday ulug'lanishi bo'yicha savollarimizga javoblar oldik.

Sharipov Abdullo 1959 yil 9 mayda Qoraqalpog'iston Respublikasining Kegiyli tumanida tug'ilgan. U o'z suhbatida 1969 yil 3 sinfda o'qiyotgan davrlarimda men raqs san'at olamida kirib kelaman deb xayolimga keltirmagandim. Biz bir guruh elatdosh og'il bolalar bilan "Qiz ketgan" kanalida suvga cho'milayotgan edik. Sal nariroqda oq mayka chiroyli tursiklarda suvda chiroyli mashqlar bajarayotgan bolalarni ko'rdik. Shunda ularning ustози Ivan Matveevich Prostenko bizlarni ham mashq bajarishga taklif qildi. Mening mashq harakatlarim u kishiga manzur bo'ldi shekilli u kishi meni keyinchalik Toshkentga olib ketdi. O'sha payti biz suvda mashq bajarganimizda Ivan Matveevich Protsynko bizni kasting qilgan ekan.

Qahramonimiz Sharipov Abdullo Nag'metovich balet artistlarini tayyorlash bilim yurtida 8 yil o'qish jarayonida raqs san'atining sirlarini o'rganib katta raqs san'ati sohnasiga oltin pillapoya qoydi.

Uning ustози Yusupov Ibrohim ko'p yillar Alisher Navoiy teatrida bosh baletmiyer bo'lib ishlagan. O'sha davrlarda ustози xalq artisti unvoni bilan taqdirlangan edi. Yusupov Ibrohim ustози unga balet raqslaridan saboh bergan. Uning yana bir ustози Sagatov Qo'rqmas aka balet sirlarini o'rgatib unga o'z ishiga ma'suliyatli bo'lish lozimligini uqtirgan. Bilim yurtida domlolarimiz bizga jahon raqs san'ati tarixini am chuqur o'rgatar edi deydi u o'z suhbatida.

Biz kasbdoshimizga sizning yutuqlarga erishishingizning asosiy saablarimiz nimada deb savol berganimizda Abdulla Nag'metovich shunday javoblarni berdi. Avvalam bor o'z kasbingni sevishing va tinmay izlanishing nafaqat raqs san'atini amaliy jihatdan balki, nazoriy jihatdan ham ko'proq bilimlarga ega o'lish lozim.

Yana kasbdosh kursdoshlarim bilan bo'ladigan ijoodiy muloqotlar ham yutuqlarim asosiy omili desam nihoyatda tog'ri bo'ladi. Qahramonimizning kursdoshlaridan Kuznestova Svetlana, Stoy Sveta, To'xtasinov Shuhrat (u kishi bugungi kunda O'z DXA rektori lavozimda faoliyat olib bormoqda).

Bilim yurtini bitirganidan keyin u Alisher Naoiy nomidagi katta teatrdan balet artisti lavozimida ikki yil faoliyat olib borgan. Sharipov Abdullo maskva Xoreografiya Institutning balet san'ati fakultitedida 4 yil o'qib oliy ma'lumotli bo'lgan. Undan keyin Buryajiyaga yo'llanma bilan ishga yuborishdi. U yerda Buryatiya katta teatrdan baletmeyster yordamchisi bo'lib ishlagan.

Buryatiyadan qaytgan kasbdoshimiz Qoraqalpog'iston Respublikasidagi "Qirq qiz" estrada ansablda bosh baletmeyster va ansambl rahbari lavozimida ish olib borgan. Ish faoliyati davomida Belorussiya, Ukraina, Litva, Gruziya,

Tatariston, Qozog'iston, Turkmaniston, Sibir, Saxamen shaharlarida ijodiy gastrollarda bo'lgan.

Biz u kishiga ijodiy gastrollar sizning faoliyatingizda qanday rol o'ynaydi? deb savol bilan yuzlanganimizda u kishi gastrollarda eng avvalo tajribam oshadi va o'sha xalqning madaniyati va raqs san'ati bilan tanishaman va ko'pgina do'stlar orttirdim.

Gruziya xalq artisti Kikabidze Vaxtang Rossiyalik san'atkor Igor Vaxlakovlar bilan tanishishim mening ijodiy faoliyatimda muhim ahamiyat kasb etdi.

Bugungi kunda qahramonimiz Qoraqalpog'iston Respublikasidagi "Berdax" nomidagi Akademik teatrida 2008 yildan boshlab bosh baletmeyster lavozimida ishlab kelmoqda.

Ijodiy izlanishlar samarasida "Qirq qiz" baletini sahnalashtirilgan san'at fidoyisi bolalar ijodiy guruhiga bag'ishlab "Bekor ketgan umur yulduzi" raqs asarlarini sahnalashtirgan asarlari ko'pchilik san'at ixlosmandlari va tomoshabinlar olqishlarida sazovor bo'lib kelmoqda.

Sharipov Abdullo 2003 yil Qoraqalpog'iston xalq artisti, 2016 - yil O'zbekiston xalq artisti unvonlariga sazovor bo'lgan. 1 - oktabr "O'qtuvchi va murabbiylar" kunida qahramonimiz O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komilssiyasi O'zbekiston Davlat Xoreografiya Akademiyasi Urganch filiali kengashining tavsiyasiga ko'ra Sh. A. Nag'metovichni san'at nazariyasi va tarixi ixtisoslik bo'yicha professor ilmiy unvoniga tasdiqladi. (2024 - yil 27 - sentyabr 36/1 sonli bayonnoma.)

Bugungi kunda u O'z DXA Urganch filialida klassika fani bo'yicha dars bermoqda. Shogirdlaridan faxirlanish tuyg'usini tuygan domlamiz Qoraqalpog'iston teatrida faoliyat olib borayotgan Dusembaev Sultan (Qoraqalpog'iston xalq artisti), Ayjamol Tulegenova (Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi) lar ham raqs san'ati rivojiga katta hissa qo'shib kelayotganlari haqida so'zlab berdi. Oltmish olti bahorni qarshilagan ustozimiz oldida hali qanchadan qancha ijodiy rejalar turibdi.

Abdulla Sharipov o'zining baletmeysterlik va pedagoglik faoliyatidagi bilim va tajribalarini 1919 - yil nashriyotida chop etilgan "Ritmika" kitobida keng yoritilgan.

"Ritmika" kitobi Nukus "Bilim" nashriyotida 2009 - yilda chop qilingan . Sharipov Abdullo Qoraqalpog'iston Respublikasining Mustaqil va Navro'z bayramlarida baletmeyster va rejissiyorlik qilib bayramlarni go'zal bo'lib o'tishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelmoqda.